

## IJODIY JAMOALAR FAOLIYATINING AHAMIYATI VA ULARGA TAHLIL

*Mamasidiqov Akramjon Muxtor o'g'li*

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

*Madaniyat va san'at sohasi menejmenti mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada madaniyat va sa'nat sohasida faoliyat olib borayotgan ijodiy jamolarnig o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohozalar yuritiladi. Ijodiy jamoalar bir qator xususiyatlarga ega. Ulardan eng muhimi shundaki, jamoa ichida kechadigan jarayonlar ikki tendensiyaning kurashi bilan xarakterlanadi. Bir yo'nalish – jamoaning o'z a'zolaridan konformizmni talab qiladigan ma'lum bir ijtimoiy guruh sifatidagi jipsligiga erishishdir, ikkinchisi esa o'z tabiatiga ko'ra konformizmga qarama-qarshi turadigan butunlay erkin shaxs uchun talab qilinadigan ijoddir.

**Kalit so'zlar:** madaniyat va san'at, ijodiy jamoa, ijodiy birlashmalar, faoliyat, badiiy jamoalar.

Ijodiy jamoalar madaniyat va sanat sohasiga qiziqqan insonlarni birlashtiruvchi jamoa hisoblanadi. Ijodiy jamoalar faoliyatining asosiy maqsadi – katta sahnaga chiqishga oshiqayotgan iqtidorli yoshlar va xalqning e'tiboridagi san'at yulduzlarini san'atini elga yana ham yaqinroq va mazmunliroq qilishdan iboratdir. Aslida, yangi g'oyalar, san'at sohasida xizmat ko'rsatadigan, mahsulot chiqaradigan faoliyat yuritadigan har qanday jamoani ijodiy jamoa deb hisobash mumkin bo'lsa-da, faqatgina musiqiy, xoreografik va teatr jamoalarini “ijodiy jamoa” deb hisoblash an'anasi saqlanib qolgan.

Bilamizki, umumiy maqsadlari, ijtimoiy manfaatlari, qadriyatlarga yo'nalgan birgalikdagi faoliyati, majburiyat va bog'liqlik munosabatlariga ko'ra birlashgan kishilarning tashkiliy guruhi o'z ichiga jamoa degan tushunchani e'tirof etadi.

Ijodiy maqsadlari, manfaatlari, qadriyatlarga yo'nalgan, majburiyat va bog'liqlik munosabatlari, birgalikdagi ijodiy faoliyatiga ko'ra san'at sohasida birlashgan kishilarning tashkiliy guruhini esa ijodiy guruhlar deb ataydilar. Ijod – bu hayrat, og'ir mehnatning mevasi, yangi so'z, yangi musiqa, yangi nota orqali sifat jihatdan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratadigan faoliyat jarayoni yoki mutlaqo yangi narsa yaratish natijasidir. Ijodiy jamoalar deganda o'z tarkibida bir nechta ijodiy guruhlariga umumiy rahbarlik qiladigan, madaniyat va san'at sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha mamlakatimiz aholisiga madaniy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtiradigan hamda madaniy-ma'rifiy va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etadigan badiiy

ijodiy jamoalar birlashmasi tushuniladi. Shu o‘rinda o‘z tasarrufida o‘ndan ortiq badiiy ijodiy jamoalarni birlashtirgan O‘zbekiston badiiy jamoalari ijodiy birlashmasi haqida quyidagilarni aytish mumkin.

Ijodiy badiiy jamoalar va alohida ijrochilarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ularning ijodiga motivatsiya berish, yurtimizning barcha mahallalarida, olis hududlarida musiqa, raqs, an’anaviy ijrochilik yo‘nalishlarini asrash, avaylash, shu asosda badiiy jamoalar faoliyati samaradorligini oshirish, mustaqillik ma’naviyatini va istiqloq g‘oyalari tarannum etadigan o‘zbek an’anaviy ijrochilik maktabini yanada rivojlantirish, badiiy jamoalarning tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini hal qilish, ularni musiqa asboblari, raqs liboslari, zamonaviy texnika va zarur anjomlar bilan ta’minlash, musiqa, raqs, an’anaviy ijrochilik san’atini O‘zbekiston xalqi, chet davlatlarda keng targ‘ib qilish, badiiy jamoalarning keng ko‘lamli dasturlarga asoslangan samarali gastrol-konsert faoliyatini uyushtirish, reklama-tijorat ishlarini yo‘lga qo‘yish, -badiiy jamoalar, alohida ijrochilar tomonidan madaniy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish va servis sohasini rivojlantirish, -musiqa, raqs, an’anaviy ijrochilik san’ati sohasida gastrol-konsert faoliyatini muvofiqlashtirish, aholining estetik talab va takliflarini o‘rganish, -qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan madaniy va ijodiy hamkorlik qilish, -“Ustoz-shogird” an’analarini rivojlantirish, birlashma tarkibidagi badiiy jamoalar hamda alohida ijrochilar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ijodiy hamkorlik va tashabbuskorlikni rag‘batlantirish shular jumlasidandir.

Ijodiy jamoalarning asosiy turlari, tarkibi. Biron bir jamiyat o‘z taraqqiyotini ta’minlashda madaniyat va san’atni, o‘zining milliy-ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirmay turib o‘z istiqbolini tassavur eta olmaydi. O‘zining qadimiy va an’anaviy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy merosimiz durdonalarini asrab-avaylash, o‘zbek xalqi madaniyati va san’atining tarkibiy qismi bo‘lgan qadimiy an’analarimiz, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma’naviy boylik - xalq qo‘shiqlari, cholg‘ularu, tomoshalar, dostonlar, maqomlar, raqslar va milliy marosimlarni bugungi kun talabidan o‘rganish, unga katta hurmat bilan munosabatda bo‘lish, kelgusi avlodlarga bekami-ko‘st yetkazish mustaqillik yillarida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Faoliyat mazmuniga ko‘ra ijodiy jamoalar qator turlarga bo‘linadi, masalan:

Faoliyatlarini birgalikda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat birlashtirib turadigan jamoalar (filarmoniya, teatrlar, madaniyat saroylari tarkibiga kiruvchi ijodiy jamoalar) professional jamoalar deyiladi.

O‘quv faoliyatining mazmunini ijodiy faoliyat tashkil etadigan jamoalar (musiqiy, raqs, teatr maktabi va boshqalardagi ijodiy jamoa) esa o‘quv ijodiy jamoalarni tashkil etadi. Tarbiyaviy–tarbiyaviy (ta’limiy) vazifalarni amalga oshirish maqsadida tuzilgan jamoalar (o‘quv va klklardagi ijodiy jamoalar), ma’rifiy –

kishilarni ma'rifatli qilish hamda klassik va zamonaviy madaniyatni targ'ib etish maqsadida tuzilgan jamoalar vazifalariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Ijodiy jamoalar mazkur jamoa vazifalarini ijodiy amalga oshira oladigan kishi tomonidan boshqariladi. "Umumiy" jamoani boshqarishda esa ijodkorlik har doim ham hisobga olinavermaydi.

Ijodiy jamoalar maqsadlariga erishish uchun yetakchi jamoaning tuzilishi, undagi ijodiy jamoaning ishiga yordam beradigan yoki xalaqit beradigan noformal guruhlarining mavjudligini bilishi zarur.

Shuningdek, ijodiy jamoalar yetakchilari o'z faoliyatlarida yagona butunlikning ikki qarama-qarshi tomonini tushunishlari kerak bo'ladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda san'at sohasida, ayniqsa ijodkorlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va katta g'amxo'rlik natijasida yangi musiqiy, sahna, ekran san'ati asarlari yuzaga kelmoqda. Yoshlarning sevimli va ularni tez o'ziga torta oladigan zamonaviy estrada qo'shiqchilar san'atiga e'tibor kuchayib, yangi-yangi ijodiy guruhlar va xonandalar maydonga chiqib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida tanila boshlagani estrada san'ati madaniyatini, estrada ijodkorlarining professional malakasini oshirish, yosh san'atkorlarning o'z iqtidorini to'la namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratmoqda.

Shu o'rinda ijodiy jamoalarning rahbarlari – iqtidorli insonlar faoliyati haqida, yangi asarlarni dunyoga kelishiga, jahon sahnalariga chiqishiga baholi qudrat harakat qilayotgan ijodiy jamoalarning a'zolariga bo'lgan e'tibor haqida ham alohida ta'kidlamq lozim. Ijodiy jamoadak murakkab organizmga pedagogik rahbarlik qilish rahbardan ijodkorlikni, yaratuvchanlikni, har qanday holatda ham masalani mustaqil hal eta olish qobiliyatini taqozo etadi. Chunki rahbar – o'z o'quvchilari uchun namuna bo'lishi lozim. O'zini tuta bilish rahbarning shaxsiy xislatlaridan biri bo'lmog'i kerak. U kutilmagan holatlarda ham o'quv-tarbiya jarayonida yetakchilik rolini o'ynashi lozim. Rahbardagi ikkilanish, o'zini yo'qotib qo'yishlarni qo'l ostidagilar sezmasligi va ko'rmasligi kerak. Bu ayniqsa ijod kishilari bilan ishlashda juda zarur. Shu o'rinda milliy san'atimizning eng yorqin janrlaridan hisoblanmish teatr- spektakl ijro etiladigan, tomoshabinni hayratlantiradigan, o'ylantiradigan, mushohada etishga undaydigan muqaddas joydir. O'zbek san'atining qirralari ko'p, lekin faqat teatrgina personajlar orqali, iqtidorli aktyorlar orqali tomoshabin bilan muloqot qiladi, so'zlashadi, fikrlashadi. Sahnadagi rol o'ynayotgan insonlar tomoshabin sifatida spektaklni tomosha qilayotgan insonlarning orzu-havaslari, umidu quvonchlari, ranju ozorlari haqida so'zlaydi. Shuning uchun ham madaniyat markazlari teatr arboblari, san'at ustalari bilan doimiy ravishda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar.

Ijodiy jamoalar bir qator xususiyatlarga ega. Ulardan eng muhimi shundaki, "jamoada ichida kechadigan jarayonlar ikki tendensiyaning kurashi bilan xarakterlanadi. Bir yo'nalish – jamoaning o'z a'zolaridan konformizmni talab qiladigan ma'lum bir ijtimoiy guruh sifatidagi jipsligiga erishishdir, ikkinchisi esa o'z tabiatiga ko'ra

konformizmga qarama-qarshi turadigan butunlay erkin shaxs uchun talab qilinadigan ijoddir”. Ijodiy jamoa sifatida shunday jamoa bo‘lish kerakki, u “o‘z sohasida yangi qarorlar ishlab chiqaradigan, yangi g‘oyalarga moyil, ijodkorlik uchun rag‘batlantiradigan” bo‘lishi kerak. Aslida, bunday maqomga har qanday jamoa sazovor bo‘lishi mumkin, chunki sharoitlar o‘zgaradigan holatda ijodiy yechim zarur bo‘ladi. Ijodkor kishilardan tashkil topgan jamoa, agar yetarli sharoit bo‘lmasa, o‘ziga topshirilgan topshiriqlarni bajara olmaydi. Shu ma’noda ijrochining mahoratini ham eslab o‘tish joiz. Agar u faqatgina “ishlab chiqaruvchi” bo‘lsa, demak, u “ijodkor” emas, balki hunarmand sanaladi. Negaki, “Ijodiy jamoa o‘z faoliyatida qabul qilingan va amalga oshiriladigan yagona badiiy maqsadga yo‘naltirilgan tizimdir”. Faqatgina tegishli fragmentlarni ijro jarayonida “ijodiy yetakchilik vaztfasi musiqachilarga o‘tadi”. Xo‘sh, solist emas, ijrochi qanday qilib “ijodkorlik”ni namoyon qiladi? U professional ijrochi kabi “butun tizim” tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni qo‘llab-quvvatlashga majbur va shundagina yagona butunlikning bir qismi bo‘ladi. Butun jamoaning ijro jarayonida aynan ijodiy holatni aks ettiradigan individuallikni ajratish va aks ettirish oson emas.

Ijodiy jamoa tuzilishi, tashkil etilishi hamda uni boshqarishda jamoaning boshqa turlaridan qanday farqlar mavjud? Ijodiy jamoa (qator holatlarda bunga guruh sinonim bo‘ladi) jamoa (guruh) tarzida mavjud bo‘ladi va o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘ladi. Ishtirokchilar, jamoa a‘zolari ani aytda ikki vazifani birlashtiradilar: professional – “ijodkor” va ijtimoiy – “fuqaro”. Agar birinchi vazifaning huquq va majburiyatlari, ijodkorlik darajasining noaniqligi bilan aniq belgilanmagan bo‘lsa, ikkinchisi esa davlatning amaldagi barcha qonunlari bilan himoya qilingan bo‘ladi va guruhning norasmiy qonunlariga ochiq bo‘ladi. Tarixan shunday shakllanganki, ijodiy jamoa mazkur jamoa vazifalarini ijodiy amalga oshira oladigan kishi tomonidan boshqariladi.

“Umumiy” jamoani boshqarishda esa ijodkorlik har doim ham hisobga olinavermaydi. Mazkur sotsiumda xohlagan jamoaga nisbatan qo‘yiladigan jarayonlarga amal qilinadi. Ijodiy jamoa rahbari, o‘ziga xos vazifalaridan kelib chiqqan holda, yetakchi va boshqaruvchi vazifalarini bajarishi qiyin.

Ijodiy jamoalar ijtimoiy psixologiyada tavsiflangan barcha belgilarga ega. Formal va noformal guruhlardan tashkil topadigan ijodiy jamoalar sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya vositalari orqali o‘rganiladi. Ijodiy jamoaning spetsifikasidan kelib chiqib, ijtimoiy psixologiya vositalariga tayangan holda uning faoliyatini to‘liq rejalashtirish mumkin. Hatto imkniyatga qarab uning ijodiy sifatini taxmin qilish mumkin. Ijodiy jamoa maqsadlariga erishish uchun yetakchi jamoaning tuzilishi, undagi ijodiy jamoaning ishiga yordam beradigan yoki xalaqit beradigan noformal guruhlarning mavjudligini bilishi zarur.

Ijodiy (ijro etuvchi) jamoa spetsifikasining mavjudligi faqatgina sotsiumda bor bor bo‘lgan boshqa jamoalardan farqlanishida emas. Chunki u “jamo” sifatida ushbu

turdagi jamoalar uchun mavjud bo'lgan barcha (formal va noformal) qonunlarga itoat qiladi. Ammo ijodiy jamoa tarzida ijodiy fikrni amalga oshiruvchi ijroda ishtirok etuvchilarning ijodiga ma'lum ma'noda bog'liq bo'ladi. Ayni paytda ijrochilar o'z ijodiy imkoniyatlarini maksimal darajada ko'rsatishlari lozim. A.Maslov iborasi bilan aytganda, ular "o'z ichida faollashmog'i" zarur. Buning uchun esa har bir ishtirokchidan maksimal darajadagi ijodiy izlanish talab etiladi. Bunda jamoa ijrosining bubunligi buzilmasligi kerak. Jamoa yetakchisi o'z ishida yagona butunlikning ikki qarama-qarshi tomonini tushunishi lozim.

Shunday qilib, "ijodiy (ijro etuvchi) jamoa"ning spetsifikasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. ijodiy (ijro etuvchi) jamoa o'z jamoaviy ijodi bilan qachonlardir va kimlardir tomonidan boshlangan jarayon bilan to'qnash keladi;
2. ijodiy (ijro etuvchi) jamoa har doim ijroning xususiy (shaxsiy) talqinini yaratadi;
3. ijodiy (ijro etuvchi) jamoa yetakchisi formal va noformal liderlikni o'zida jamlashi lozim;
4. ijodiy (ijro etuvchi) jamoaning har bir ishtirokchisi, barcha turdagi ijodiy g'oyalarni amalga oshira borib, o'z individual ijodiy qobiliyatini namoyon qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, estrada san'ati madaniyatini, estrada ijodkorlarining professional malakasini oshirish, yosh san'atkorlarning o'z iqtidorini to'la namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratish borasida kamchilik va nuqsonlarga ham yo'l qo'yilib, xalqimizni Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi yetuk musiqiy asarlar bilan bir qatorda, mutasaddi tashkilotlar va ba'zi estrada jamoalari hamda yakkaxon ijrochilarning mas'uliyatsizligi oqibatida mazmunan sayoz, badiiy jihatdan zaif qo'shiqlar ham konsert dasturlari radio-telekanallaridan o'rin olib, audio-video kassetalar orqali tarqatilib, ma'naviy tarbiya ishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Ushbu kamchilik va xatolarni, mavjud muammolarni hal etish maqsadida boshqaruv tizimida islohotlar olib borilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Haydarov A.Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari.T."Kamalak" 2019 y.
2. U.Zunnunova, T.Fayziyev. Art marketing. "Kamalak".2019.
3. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent. Ma'naviyat.2008.
4. Nizomulmulk .Siyosatnoma.(Siyar-muluk).T.Yangi asr avlodi.2015.